



Samarqand viloyatida kichik tadbirdorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yil yanvar – martida

- 2020 yilning yanvar – martida kichik tadbirdorlikning YaHMdagи ulushi **68,9 %**ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirdorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, **10,3** birlikni tashkil qildi.
- 2020 yilning yanvar – martida **2 293** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,0** foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1 015 ta, sanoatda 420 ta, yashash va ovqatlanishda 277 ta, qurilishda 126 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 220 ta, tashish va saqlashda 34 tani tashkil etgan.

2020 yil yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Savdo
44,3 %



Sanoat
18,3 %



Qurilish
5,5 %



Qishloq, o'mon va
baliq xo'jaligi
9,6 %



Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar
12,1 %



Tashish va
saqlash
1,5 %



2019-2020 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019 y.	2020 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	22 373	27 490	5 117
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2 940	2 293	-647
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	68,3	68,9	0,6
Sanoat	%	43,1	51,3	8,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	96,5	97,0	0,5
Investitsiya	%	66,3	72,1	5,8
Qurilish	%	98,6	95,8	-2,8
Savdo	%	88,0	82,5	5,5
Xizmatlar	%	72,6	69,7	-2,9
Yuk tashish	%	95,4	94,3	-1,1
Yuk aylanmasi	%	95,8	80,1	-15,7
Yo'lovchi tashish	%	94,0	95,1	1,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,4	97,4	0,0
Eksport	%	82,2	74,9	-7,3
Import	%	76,8	77,8	1,0



2020 yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %




2020 yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Samarqand shahrida – 536 ta, Samarqand tumanida – 209 ta, Pastdarg'om tumanida – 194 ta, Urgut tumanida – 175 ta, Kattaqo'rg'on tumanida – 182 ta va Ishtixon tumanida – 133 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Paxtachi tumanida 62 ta va Qo'shrabot tumanida – 49 tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 yil yanvar – mart	2020 yil yanvar – mart	(+;-)
Samarqand viloyati	2 940	2 293	-647
Samarqand sh.	972	536	-436
Kattaqo'rg'on sh.	64	80	16
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	102	86	-16
Bulung'ur	104	100	-4
Jomboy	123	110	-13
Ishtixon	216	133	-83
Kattaqo'rg'on	126	182	56
Qo'shrabot	60	49	-11
Narpay	59	90	31
Payariq	148	113	-35
Pastdarg'om	200	194	-6
Paxtachi	71	62	-9
Samarqand	302	209	-93
Nurobod	70	73	3
Urgut	186	175	-11
Tayloq	137	101	-36



2020 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %




2020 yil yanvar - mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Samarqand shahri - 23,4 %, Samarqand tumani - 9,1 %, Pastdarg'om tumani - 8,5 %, Kattaqo'rg'on tumani - 7,9 %, Urgut tumani - 7,6 %, Ishtixon tumani - 5,8 %, Payariq tumani - 4,9 %, Jomboy tumanida – 4,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 yil yanvar-mart	2020 yil yanvar-mart	(+;-)
Jami	2 940	2 293	-647
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	180	220	40
Sanoat	715	420	-295
Qurilish	237	126	-111
Savdo	1 218	1 015	-203
Tashish va saqlash	60	34	-26
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	322	277	-45
Axborot va aloqa	42	36	-6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	28	33	5
Boshqa faoliyat turlari	138	132	-6

Ma'lumot uchun: 2020 yilning yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i:




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019 yil yanvar-mart	2020 yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Samarqand sh.	972	536	-436
Samarqand tumani	302	209	-93
Pastdarg'om tumani	200	194	-6
Kattaqo'rg'on tumani	126	182	56
Urgut tumani	186	175	-11
Ishtixon tumani	216	133	-83
Payariq tumani	148	113	-35
Jomboy tumani	123	110	-13
Tayloq tumani	137	101	-36
Bulung'ur tumani	104	100	-4

2020 yil yanvar–martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng ko'p salmog'i Samarqand shahrida – 536 ta.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda





Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - mart holatiga*



2020 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand shahrida 15,8 birlik, Payariq tumanida 12,3 birlik, Bulung'ur tumanida 11,2 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 10,8 birlik, Samarqand tumanida 10,8 birlik, Jomboy tumanida 10,6 birlik, Ishtixon tumanida 10,3 birlik, Oqdaryo tumanida 9,1 birlikni tashkil etgan. Narpay tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,1 birlikga to'g'ri keldi.



* Kichik korxona va mikrofirmalar(fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shganholda)




2020 yilning yanvar-martida shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



* Kichik korxona va mikrofirmalar(fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shganholda)





2020 – yilning yanvar – martida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand shahrida 15,8 birlik, Payariq tumanida 12,3 birlik, Bulung'ur tumanida 11,2 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 10,8 birlik, Samarqand tumanida 10,8 birlik, Jomboy tumanida 10,6 birlik. Ushbu ko'rsatkich eng past Narpay tumanida 6,1 birlikni tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

- 
- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Samarqand shahrida - 15,8 birlik;

- 
- **O'rtacha korsatkich**
Nurobod tumanida - 10,0 birlik;

- 
- **Eng past ko'rsatkich**
Narpay tumanida - 6,1 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Samarqand shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Narpay tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'sish dinamikasi, yanvar - mart holatiga, %

2020 yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 68,9 % ni tashkil qildi. (2019 - yilning yanvar - martida 68,3 %).

2020 y.

68,9 %


YaHMning o'tgan yilga nisbatan ko'payishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.

2019 y.

68,3 %



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)





2020 yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Samarqand viloyati	51,3	95,8	69,7	72,1
Samarqand sh.	36,9	88,7	57,5	79,2
Kattaqo'rg'on sh.	15,2	100,0	94,7	77,3
tumanlar				
Bulung'ur	100,0	100,0	96,3	85,9
Jomboy	22,9	100,0	92,0	79,2
Ishtixon	100,0	100,0	95,7	70,3
Kattaqo'rg'on	87,3	100,0	98,1	84,8
Narpay	10,2	100,0	94,2	93,3
Nurobod	100,0	100,0	98,6	84,4
Oqdaryo	100,0	100,0	95,3	82,8
Payariq	100,0	100,0	95,1	97,0
Pastdarg'om	78,6	100,0	87,4	97,9
Paxtachi	100,0	100,0	94,0	89,7
Samarqand	96,4	98,3	90,4	69,1
Tayloq	81,4	100,0	86,8	62,6
Urgut	98,0	100,0	94,4	55,4
Qo'shrabot	100,0	100,0	95,5	37,1

Hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi eng ko`p:

Sanoatda-

Bulung'ur (100,0 %),
Ishtixon (100,0 %),
Nurobod (100,0 %),
Oqdaryo (100,0 %),
Payariq (100,0 %),
Paxtachi (100,0 %) va
Qo'shrabot (100,0 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Kattaqo'rg'on sh.
Bulung'ur, Jomboy,
Ishtixon, Kattaqo'rg'on,
Narpay, Nurobod,
Oqdaryo, Payariq,
Pastdarg'om, Paxtachi,
Tayloq, Urgut,
Qo'shrabot (100,0 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-


Nurobod (98,6 %),
Kattaqo'rg'on (98,1 %),
Bulung'ur (96,3 %),
Ishtixon (95,7 %),
Qo'shrabot (95,5 %),
Oqdaryo (95,3 %),
Payariq (95,1 %) va
Urgut (94,4 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 yilning yanvar-martida

-
- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1695,7 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 51,3 %).
 - 2 1103,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 72,1 %) o'zlashtirildi va 2019 yilning yanvar-martiga nisbatan 105,2 %ni tashkil qildi;
 - 3 803,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 95,8 %) bajarildi va 2019 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 %ni tashkil qildi;
 - 4 2246,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (xizmatlar hajmining 69,7 %), 2019 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 %ni tashkil qildi;
 - 5 chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 82,5 % yoki 2695,8 mlrd. so'mini (o'sish sur'ati 103,9 %ni) tashkil qildi.
 - 6 67,0 mln. AQSH dollari (umumiyligi eksport hajmining 74,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.
 - 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,1 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 80,1 %) ko'payishi ta'minlanadi;
 - 8 yo'lovchi aylanmasining esa 1,5 %ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 97,4 %) ko'payishi ta'minlandi.




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ish, xizmatlar) eksportining, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2020 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot (ish, xizmatlar)eksportining jami eksportdagi eng ko'p ulushini Kattaqo'rg'on, Nurobod, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg'om, Paxtachi, Urgut, Qo'shrabot, tumanlarida 100,0 %ni tashkil qildi. Aksincha eng past ko'rsatkich Narpayda – 28,9 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 13,1% ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ish, xizmatlar) importining, jami import hajmidagi ulushi, %




2020 yil yanvar - mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot (ish, xizmatlar)importining jami importdagi eng yuqori ulushi Ishtixon, Payariq, Urgut, Qo'shrabot tumanlarida (100,0 %), Pastdargo'm tumani (99,8 %), Kattaqo'rg'on shahri (96,4 %), Oqdaryo tumani (95,4 %), Samarqand tumani (90,3 %), Kattaqorg'on tumani (89,1 %), Bulung'ur tumani (85,6 %) va Nurobod tumani (79,9 %). Narpay tumanida esa eng past ko'rsatkich (56,1 %)ni tashkil etdi.







2020 yilning yanvar - martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (602,1 mld. so'm), Samarqand tuman (198,0 mld. so'm), Urgut (199,8 mld. so'm), Tayloq (111,3 mld. so'm) va Jomboy (92,2 mld. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot tumani (6,0 mld. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Paxtachi, Oqdaryo, Payariq, Nurobod, Ishtixon, Bulung'ur va Qo'shrabot tumanlarida (100,0%), Urgut (98,0%), Samarqand (96,4%), Kattaqo'rg'on (87,3%), Tayloq (81,4%), Pastdarg'om tumanlarida (78,6%) tashkil etdi. Kattaqo'rg'on shahrida (15,2%), Narpay tumanida esa (10,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




2020 yilning yanvar - martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko`p chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahrida (606,2 mld. so'm), Urgut tumanida (355,0 mld. so'm), Pastdarg'om tumanida (200,6 mld. so'm), Bulung'ur (178,3 mld. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (171,1 mld. so'm), Payariq (130,6 mld. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020 yilning yanvar - martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (270,1 mlrd. so'm), Oqdaryo (70,1 mlrd. so'm), Payariq (55,2 mlrd. so'm), Pastdarg'om (53,3 mlrd. so'm), Urgut (50,2 mlrd. so'm), Tayloq, (43,2 mlrd. so'm), Samarqand (40,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.





2020 yilning yanvar - martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha xizmatlar hajmi eng ko`p Samarqand shahri (1226,4 mlrd. so'm), Samarqand (102,0 mlrd. so'm), Urgut (79,0 mlrd. so'm), Jomboy (78,8 mlrd. so'm), Pastdarg'om (78,2 mlrd. so'm), Ishtixon (71,2 mlrd. so'm) va Oqdaryo (68,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan softushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1292** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


2020 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar savdoda – 36,1 % (467 ta), xizmatlar sohasidagi ulushi – 30,0 % (387 ta), qurilishda – 20,5 % (265 ta), sanoatda – 9,6 % (124 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 3,8 % (49 ta.)ni tashkil etdi.

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan softushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2020 yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning I choragida, oxirgi hisobot yilda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat savdo korxonalarida - 14,5 punktga, qurilish sohasida - 9,8 punktga, xizmatlar sohasida - 1,8 punktga oshdi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 18,2 punktga, sanoat sohasida - 17,7 punktga, xizmatlar sohasida - 3,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalarda barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarning 2019-2020 yillar I choragi bo'yicha iqtisodiy vaziyatni baholash, %




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 yil I choragida oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan soʻf tushumi mavjudlari boʻyicha oʼtkazilgan kuzatuv natijalariga koʼra oʼtgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan korxonalari ulushi savdo sohasida - 12,6 punktga, sanoat korxonalarida - 6,0 punktga, qishloq, oʼrmon va baliq xoʼjaligida - 1,1 punktga oʼsdi.

Shu bilan birga, oʼtgan yil bilan taqqoslaganda, xizmatlar sohasida - 6,3 punktga, sanoatda - 4,3 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati oʼzgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi oʼsdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishi sanoatda - 10,3 punktga, savdoda - 5,5 punktga, xizmatlar sohasida - 4,5 punktga, qurilishda - 4,0 punktga kamaygan.


Oxirgi hisobot yilida soʻf tushumi mavjud boʼlgan korxonalarining 2019 - 2020 yillar I chorakdagи iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oyda baholanishi %








2020 yil I choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 230 ta respondentlar qatnashgan. Shundan savdoda – 99 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 43,0%), qurilishda – 45 ta (19,6%), xizmatlarda – 54 ta (23,5%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 20 ta (8,7%) va sanoat korxonalarida – 12 ta (5,2%).

2020 yilning I choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi






2020 yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar barcha faoliyat turlari bo'yicha sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda - 13,6 punktga, savdoda sohasida - 11,9 punktga, sanoat sohasida - 8,4 punktga va xizmatlar sohasida - 3,2 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.



2019 - 2020 yil I choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,%



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 yil I choragida tashkil etilganlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga qurilish va sanoat korxonalar ishonishgan: sanoat korxonalarida - 14,3 punktga, qurilish korxonalarida - 6,1 punktga oshdi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida - 1,5 punktga, savdoda - 7,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida - 2,5 punktga oshdi, hamda qurilishda - 8,3 punktga va sanoat sohalarida - 14,3 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyati yomonlashishini baholagan subyektlar bo'yicha deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlarida o'zgarishsiz qolgan.

